

Ziyo Taratgan Siymolar

2020 14 февраля

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

O'zbek mumtoz she'riyati o'z jozibasi bilan asrlar osha ijod ixlosmandlari qalbidan chuqur joy olib kelgan. Unda ko'plab siymolar havas qilgulik darajada qalam tebratganlar. Ana shunday zotlardan biri shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur benazir adib, olim, shoir hamda mohir sarkarda sifatida tarixda o'z o'rniiga ega. Otasi Umarshayx Mirzoning bevaqt o'limi sabab taxtga o'tirgan yosh Bobur murakkab va ziddiyatlarga to'la hayot kechirdi. O'z yurtini tark etish, yangi ellardagi mashaqqatli turmush shoir lirikasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi:

Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilik'?
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma, ondin yaxshilik'!
Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilik'!

"Boburnoma" asari bilan u o'zbek nasrining imkoniyatlarini yuksaklikka ko'tardi. Undagi voqealar bayoni aniq va lo'nda, ta'sirchan, muhimi tarixga muvofiqligi bilan e'tiborlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur millatimiz nomini dunyoga tanitgan shaxslardan biri bo'ldi. Undan qolgan yirik ijodiy meros esa, o'zbek hamda hind xalqlarining ezgu orzu-o'ylari, mushtarak maqsadlarini o'zida mujassam etgan.

Bu bebaho boyliklarni asrash, o'rganish, kelgusi avlodlarga ham boricha yetkazish esa, bizlar uchun farzdir.